

NAMANGAN SHEVALARI LEKSIKASI

Raxmatullayev Anasxon Hamidullo o‘g‘li

Nodavlat ta’lim muassasi Ona tili va adabiyot fani o‘qituvchisi

anasxonrahmatullayev@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqolada Namangan shevalari leksikasini lingvoareal usulda tahlil qilib chiqdik. Namangan shevalari leksikasini tavsif va tahdid etish o‘zbek adabiy tilining boyishiga xizmat qiladi.

Kalit so‘zlar: Namangan sheva, leksika, til, o‘zbek adabiy tili, xalq tili, supurgi, qop, shirgurunch, suzma, do‘ppi.

Аннотация: В данной статье мы проанализировали лексику наманганских диалектов лингвогреальным методом. Описание и описание лексики наманганских диалектов служат обогащению узбекского литературного языка.

Ключевые слова: диалект, лексика, язык, узбекский литературный язык, народный язык,

Annotation: In this article, we have analyzed the lexicon of Namangan dialects using the linguoreal method. Describing and describing the lexicon of Namangan dialects serves to enrich the Uzbek literary language.

Keywords: Namangan, dialect, vocabulary, language, Uzbek literary language, folk language,

KIRISH

Til - buyuk ne’matdir, har bir millat o‘z tilini e’zozlasa, qadrlasa, taraqqiyoti uchun jon kuydirsa, hozirgi kunda nodir manba hisoblangan jonli so‘zlashuv tili ya’ni

xalq tilini yozib olsa, u til go‘zal, betakror va buyuk bo‘lib qolaveradi¹. Chunki har bir millatning tilida xalq tarixi, millat qadriyatlari, ma’daniyati ifodalangan bo‘ladi. Mana shu milliy qadriyatlarni o‘zida mujassam etgan har bir millatning tili bir qancha manbalar orqali boyib, rivojlanib boradi.

Turkiy tillarning ilmiy o‘rganilishi o‘zbek tilshunosligi, xususan, o‘zbek dialektologiya sohasining rivoj topishda muhim o‘ringa ega. Qadimdan shevaga e’tibor qaratilgan bo‘lib, buning ilk tarixini Mahmud Qoshg‘ariyning “Devonu lug‘otit-turk”, Yusuf xos Hojibning “Qutadg‘u bilig” asari orqali ko‘rishimiz mumkin. Bundan tashqari, To‘nyuquq bitik toshida shevalarning qadimiy ko‘rinishi saqlanib qolgan. Masalan, “...uduzug‘ma ulug‘i sid arti. Yig‘il, tadi, yig‘masi ban artim - bilga To‘nyuquq.² Bunday qadimiy ko‘rinishni bugungi kunda ayrim shevalar saqlab qolgan.

MUHOKAMA QISMI

Xususan, Namangan shahar shevasining fonetik strukturasi eksperimental tahlillar asosida o‘rganilib, uning boshqa o‘zbek shevalaridan farqli, o‘zigagina xos belgilari aniqlangan.³ Namangan shahar shevasi o‘zining fonetik, leksik va grammatik tomoni bilan o‘zbek shevalari orasida ajralib turadi. Xususan, Namangan shahar shevasining morfologik xususiyatlari o‘ziga xosdir. Masalan, kelishik tizimlarida bu yaqqol namoyon bo‘la oladi. -da (o‘rin-payt) kelishigi adabiy tilda uyda shaklida; Namangan shahar shevasida uyde shaklida uchraydi. -dan (chiqish) kelishigi esa uydan; uydaa shaklida, ya’ni bunda qo‘llanilgan “a” fonemasi invarianti til orqa “a” unlisini ifodalaydi. -ga (jo‘nalish) kelishigi qo‘shimchasi eshikka so‘zini (adabiy) talqini sifatida ishi:ga shaklida uchraydi. Bundan tashqari, -lar (ko‘plik shakli) qo‘shimchasi -le, -ler shaklida uchraydi. Masalan, qalamlar(adabiy) - qalamle(shevada), qalamlarim - qalamlerim kabi.

¹ Ismat Sanayev. “Ziyovuddin tarixi”. – T.: Sharq, 1995. – B. 377, 378

² Darvishov I. Areal tilshunoslik: janubi-g‘arbiy Namangan shevalarining fonetik-fonologik xususiyatlari. Monografiya. Toshkent: Navro‘z, 2019

³ Rahmonov N., Sodiqov Q. O‘zbek tili tarixi. Toshkent. 2009

Shu o‘rinda ta’kidlash joizki, o‘zbek adabiy tili nodir javohirlardan iborat bo‘lgan xalq tilidan oziqlanib, boyib boradi. Chunki boy manba hisoblangan xalq tili yozma yodgorliklarimizda uchramaydigan va bizgacha yetib kelmagan bir qancha so‘zlarni o‘zida saqlagan. Bunday so‘zlar o‘zbek adabiy tili uchun nodir meros bo‘lib xizmat qiladi. Bu xususiyatlar ko‘proq so‘zlar leksikasida o‘z ifodasini topadi. Shuning uchun ham shevalar leksikasini o‘rganish o‘zbek adabiy tilining lug‘at boyligini oshirishda o‘rni beqiyosdir. Mana shu sabablar bizni Namangan shevalari leksikasini lingvoareal usulda o‘rganishga undagan.

Hozirga qadar o‘zbek tilshunosligida Namangan shevalarining leksikasi alohida tadqiqot obyekti sifatida o‘rganilmagan. Namangan shevalari leksikasini tavsif va tadqiq qilish o‘zbek dialektologiyasida hozirgacha qayd qilinmagan ayrim leksik xususiyatlarini aniqlashga, shuningdek hozirgi o‘zbek adabiy tilining boyishiga xizmat qiladi. Xalqning ijtimoiy turmush tarzi rivojlanib, o‘sib borgan sari uning tili ham o‘zgarib, rivojlanib boradi. Mana shu o‘zgarishlar davomida ajdodlarimiz so‘zlashib kelgan tilidagi ya’ni xalq tilidagi ba’zi so‘zlar muomaladan chiqib, yo‘qolib boradi. Bugungi kunda xalqning ma’naviy boyligi hisoblangan Namangan shevalarini yozib olmaslik moddiy va ma’naviy yodgorliklarni yo‘qotish bilan barobar.

Birinchi prezidentimiz I.Karimov aytganlaridek “...ular milliy davlatchiligidan, ma’daniyatimiz, dinu tilimiz va muqaddas urf-odatlarimizning yanada qad rostlashida muhim omil vazifasini bajaradi”¹.

Namangan shevalari leksikasining o‘ziga xos tomonlari mavjudligining sabablari ham yuqorida keltirilgan faktik materiallarga bog‘liq desak, xato qilmaymiz. Chunki turli tillarda so‘zlovchi xalqlar tilining ta’siri tarixiy yozma yodgorliklarimizda ham saqlanib qolgan. Bunday tarixiy manbalarga “Devoni lug‘otut turk”, “Hibatul haqoyiq”, “Qissasi Rabg‘uziy” kabi o‘zbek tilimizning boyligini o‘zida saqlab kelgan nodir asarlar kiradi. Bunday asarlar tilimizning tarixini o‘rganish uchun asos bo‘ladi. Shu bois ham mazkur hudud shevalari leksikasi Mahmud Qoshg‘ariyning “Devoni lug‘atut turk” va A.K. Borokovning “XIXIII asr O‘rta Osiyo tafsiri leksikasi” kabi

¹ Karimov. I. A. “Halollik va fidoyilik – faoliyatimizning asosiy mezoni bo‘lsin”. – T.: O‘zbekiston, 1994. – B. 3

asarlar bilan chog‘ishtirib o‘rganildi. Xalqning turmush tarzi bilan bog‘liq bo‘lgan so‘z va terminlar shevalarda turli xil shaklda lisoniy ifoda etishi mumkin. Xuddi shunday Namangan shevalarining ba’zilari nafaqat adabiy tilda balki boshqa hudud shevalarida ham boshqa lisoniy ma’no ifodalaydi.

Turkiy tillarning ilmiy o‘rganilishi o‘zbek tilshunosligi, xususan, o‘zbek dialektologiya sohasining rivoj topishda muhim o‘ringa ega. Qadimdan shevaga e’tibor qaratilgan bo‘lib, buning ilk tarixini Mahmud Qoshg‘ariyning “Devonu lug‘otit-turk”, Yusuf xos Hojibning “Qutadg‘u bilig” asari orqali ko‘rishimiz mumkin. Bundan tashqari, To‘nyuquq bitik toshida shevalarning qadimiyo ko‘rinishi saqlanib qolgan. Masalan, “...uduzug‘ma ulug‘i sid arti. Yig‘il, tadi, yig‘masi ban artim - bilga To‘nyuquq¹. Bunday qadimiyo ko‘rinishni bugungi kunda ayrim shevalar saqlab qolgan. Xususan, Namangan shahar shevasining fonetik strukturasi eksperimental tahlillar asosida o‘rganilib, uning boshqa o‘zbek shevalaridan farqli, o‘zigagina xos belgilari aniqlangan. [3] Namangan shahar shevasi o‘zining fonetik, leksik va grammatik tomoni bilan o‘zbek shevalari orasida ajralib turadi. Xususan, Namangan shahar shevasining morfologik xususiyatlari o‘ziga xosdir. Masalan, kelishik tizimlarida bu yaqqol namoyon bo‘la oladi. -da (o‘rin-payt) kelishigi adabiy tilda uyd shaklida; Namangan shahar shevasida uyde shaklida uchraydi. -dan (chiqish) kelishigi esa uydan; uydaa shaklida, ya’ni bunda qo‘llanilgan “a” fonemasi invarianti til orqa “a” unlisini ifodalaydi. -ga (jo‘nalish) kelishigi qo‘shimchasi eshikka so‘zini (adabiy) talqini sifatida ishi:ga shaklida uchraydi. Bundan tashqari, -lar (ko‘plik shakli) qo‘shimchasi -le, -ler shaklida uchraydi. Masalan, qalamlar(adabiy) - qalamle(shevada), qalamlarim - qalamlerim kabi. Namangan shahar shevasida egalik kategoriysi o‘ziga xos shakl va talaffuzga ega.

Egalik kategoriysi

Birlik

I qalam, ruchkam

II qalamning, ruchka:

¹ Mahmud Qoshg‘ariy. “Devonu lug‘atut turk”. I. Toshkent., 1960-1963.

III qalami, ruchkasi

Ko‘plik I qalamlerimiz, ruchkelerimiz

II qalamine, ruchkane

III qalamleri, ruchkeleri

Bundan tashqari, fe'lning to‘liqsiz shakllari edi, ekan, emish shakllari ham o‘ziga xos usulda qo‘llaniladi. Masalan, kelgan ekan (adabiy) shakli kegan eka: shaklida uchraydi.

Bunda qo‘llangan “a” fonemasi “a” fonemasining invarianti bo‘lgan til orqa “a” unlisidir. Zamon ma’nosini ifodalovchi -yapti shakli ham mutlaqo boshqa shaklda uchraydi.

Ya’ni kelyapti > kilitti, kelutti shaklida;

kelishyapti shakli esa kilishitti, kelishutti.

Shaxs-son kategoriyasi qo‘llanilishi shaklga quyidagicha ta’sir ko‘rsatgan: Shaxs-son kategoriyasi

Birlik I Attim

II Atting

III Atti

Ko‘plik I Ayttu

II Attina

III Aytishti

Bundan tashqari, mayl kategoriyasi shakllaridan buyruq-istak mayli shakli (-y, -ay, -ylik, -aylik, -ng, -ing, -ngiz, -ingiz, -inglar, -sin, -sinlar) ni keltirishimiz mumkin:

O‘qiylik - O‘qiylu

Ko‘ringlar - Ko‘rina:

Yozaylik - Yozaylu

Eshitsin – Ishitsu

Ko‘ring - Kuri:

Aytsinlar - Aytsulla

Shart mayli shakli -sa

Yozsam - Yossam

Yozsang - Yossa:

Yozsa - Yossa

Yozsak - Yossa:

Maqsad mayli shakli -moqchi adabiy shakl bilan bir xil. Olmoshlar ham adabiy tildan farqli hisoblanadi.

Masalan, Anavi – Anu

Manavi - Manu

Mana shu - Mashi

Ana shu - Ashi

Allakim - Alakim

Allanarsa - Ennassa

Hech nima - Hish tima

Hech narsa - Hich nassa

Otlarning shakllari ayrim so‘zlarda tamomila boshqachaligi kishini hayratga solidi.

Ona - Aba

Dada - Deda

Amaki - Katta deda

Qaynota - Amaki

Mushuk - Mushu, mishiq, mishig‘

Sichqon - Chichqon Chumoli - Chimaliq Ari - Eri

Baliq - Belig‘

XULOSA QISMI

Bu misollar qatorida yordamchi briliklarni ham keltirishimiz mumkin: Bilan - bila, mina (undan) keyin - (ina) ki:,kti, kit, kiyi: (man) ham - manam (man) bilan - ma bla (man)dan keyin - mandan kti Tahlillar shuni ko‘rsatadiki, Namangan shahar shevasi o‘zbek shevalari doirasida boyligi, emotsionalligi bilan ajralib turadi. Shevalarni

to‘plash jarayonida yangi leksemalar kashf etilib boraverar ekan, o‘zbek tili boyishdan to‘xtamasligiga guvoh bo‘lamiz.

Bunday ma’naviy yodgorliklarimiz Namangan shevalarida ko‘plab saqlangan. Faqatgina Namanganda emas, balki yurtimizning barcha tuman va shaharlarida, qishloqlarida saqlangan. Bunday nodir manbalarimizni yozib olish siz-u bizning sharaflı burchimizdir. O‘zbek adabiy tilining rivoji, taraqqiyoti, teran tadqiqi va tashviqi borasida ko‘p ishlar qilinmoqda. O‘zbek tilining boy va nafis leksik qatlamini, uning betakror va sir-asrorga to‘la badiiy mo‘jizalar yaratadigan qudratli lisoniy manbalarini asrashimiz kerak. Shunday ekan, o‘zbek adabiy tilining ravnaqi uchun, uning nodir manbasi hisoblangan xalq tilini yo‘qolib ketmasligi uchun o‘z hissamizni qo‘shaylik.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Karimov. I. A. “Halollik va fidoyilik – faoliyatimizning asosiy mezoni bo‘lsin”. – T.: O‘zbekiston, 1994. – B.
2. Ismat Sanayev. “Ziyovuddin tarixi”. – T.: Sharq, 1995. – B. 377, 378.
3. Mahmud Qoshg‘ariy. “Devonu lug‘atut turk”. I. Toshkent., 1960-1963
4. Rajabov N. O‘zbek shevashunosligi. Darslik. Toshkent: O‘qituvchi, 1996
5. Darvishov I. Areal tilshunoslik: janubi-g‘arbiy Namangan shevalarining fonetik-fonologik xususiyatlari. Monografiya. Toshkent: Navro‘z, 2019
6. Rahmonov N., Sodiqov Q. O‘zbek tili tarixi. Toshkent. 2009